



“SHAXSNING KORRUPSIYAGA MOYILLIGINI BELGILOVCHI PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR VA OMILLAR”

Xojimuhamedova Dilbar Rixsiboevna

*Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti katta
o'qituvchisi*

Annotatsiya

Maqolada shaxsning korrupsiyaga moyilligini shakllantiruvchi psixologik xususiyatlar, ijtimoiy va shaxsiy omillar tahlil qilingan. Shuningdek, korrupsiyaning kelib chiqishida axloqiy qadriyatlar, shaxsiy mas'uliyat, motivatsiya, stressga chidamlilik hamda ijtimoiy muhitning o'rne yoritilgan. Korrupsiyaning oldini olishda psixologik profilaktika va shaxsiy halollik madaniyatini rivojlantirishning ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: korrupsiya, korrupsiyaga moyillik, psixologik xususiyatlar, shaxs, axloqiy qadriyatlar, motivatsiya, ijtimoiy muhit, halollik, huquqiy madaniyat.

Korrupsiya bugungi kunda davlat boshqaruvi, iqtisodiyot va jamiyat taraqqiyotiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatuvchi murakkab ijtimoiy-huquqiy muammoli hodisadir. Uni faqat huquqiy yoki iqtisodiy nuqtai nazardan emas, balki psixologik jihatdan ham o'rganish muhim ahamiyatga ega. Sababi korrupsion xatti-harakatning markazida qaror qabul qiluvchi inson turadi. Demak, shaxsning psixologik xususiyatlari, qadriyatlari va hayotiy pozitsiyasi uning korrupsiyaga munosabatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ilmiy tadqiqotlar korrupsion xulq-atvorning yuzaga kelishida insonning psixologik xususiyatlari, shaxsiy qadriyatlari va qaror qabul qilish mexanizmlari muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Shu sababli korrupsiyaning psixologik



asoslarini o'rganish korrupsiyaga qarshi kurashning samaradorligini oshirishda muhim ilmiy yo'nalish hisoblanadi.

Psixologiya nuqtai nazaridan korrupsiyaga moyillik bu shaxsning shaxsiy manfaatni jamoat yoki davlat manfaatidan ustun qo'yishga tayyorligi, axloqiy me'yorlarni buzishga ichki moyilligi va noqonuniy foyda olishni oqlashga bo'lgan psixologik tayyorligidir. Bunday moyillik tug'ma xususiyat emas, balki insonning tarbiyasi, kognitiv buzilishi, ijtimoiy muhiti, hayotiy tajribasi va qadriyatlar tizimi ta'sirida shakllanadi.

Shaxsning korrupsiyaga moyilligi quyidagi psixologik xususiyatlar bilan

bog'liq bo'lishi mumkin:

1. Axloqiy qadriyatlarning yetarlicha shakllanmaganligi;

-Halollik, adolat, vijdon va mas'uliyat kabi axloqiy qadriyatlar insonning ichki nazorat mexanizmini shakllantiradi. Ushbu qadriyatlarning zaif rivojlanganligi shaxsning korrupsion xatti-harakatni oqlash ehtimoli orttiradi;

2. Yuqori darajadagi moddiy manfaatdorlik;

Psixologik tadqiqotlarda moddiy boylikni asosiy hayotiy maqsad sifatida qabul qiluvchi shaxslarda korrupsion xatar yuqoriroq ekanligi qayd etilgan. Bunday holatda inson qonun va axloq talablaridan ko'ra shaxsiy foydani ustun qo'yadi. Moddiy boylikni har qanday vosita bilan qo'lga kiritishga intilish korrupsiya xavfini oshiradi.

3. Shaxsiy mas'uliyat hissining pastligi;

O'z harakatlari oqibati uchun javobgarlikni his qilmaslik korrupsiyaga moyillikning muhim psixologik belgilari qatoriga kiradi. Bunday shaxslar o'z xatti-harakatlarini tashqi omillar bilan izohlashga moyil bo'ladilar. O'z harakatlarining oqibatlarini anglamaslik yoki ular uchun javobgarlikni his qilmaslik korrupsion qaror qabul qilish ehtimolini kuchaytiradi.



4. Axloqiy dissonans va o'zini oqlash mexanizmi;

Korrupsion xatti-harakat sodir etgan shaxslarda kognitiv dissonansni kamaytirish uchun o'zini oqlash mexanizmlari shakllanadi. Ular "hamma shunday qiladi", "bu katta jinoyat emas" yoki "men bunga munosibman" kabi fikrlar orqali o'z harakatini oqlashga intiladi.

5. Past darajadagi emotsional intellekt;

Emotsional intellekt insonning o'z hissiyotlarini boshqarishi, boshqalarning holatini anglashi va ijtimoiy munosabatlarni samarali tashkil etish qobiliyatini anglatadi. Uning yetarli darajada rivojlanmaganligi impulsiv qarorlar qabul qilinishiga va shaxsiy manfaatlarni ustun qo'yishga sabab bo'lishi mumkin.

6. Xavfni noto'g'ri baholash;

Ayrim shaxslar korrupsion harakatning fosh bo'lish ehtimolini past baholaydilar. Bunday psixologik ishonch ularni noqonuniy qaror qabul qilishga undaydi.

7. Konformizm va ijtimoiy ta'sir;

Agar mehnat jamoasida korrupsiya odatiy hol sifatida qabul qilinsa, shaxs ham guruh bosimi ta'sirida shu xatti-harakatni takrorlashi mumkin. Bu ijtimoiy-psixologik ta'sir mexanizmi korrupsiyaning kengayishiga xizmat qiladi.

8. Stress va bosimga bardoshlilikning pastligi;

Moliyaviy qiyinchiliklar, xizmat bosimi yoki tashqi ta'sirlar ba'zi insonlarni korrupsion takliflarga moyil qilishi mumkin.

Korrupsiyaga moyillikni kuchaytiruvchi omillar;

Shaxsiy psixologik xususiyatlar quyidagi omillar bilan birlashganda korrupsiya xavfi yanada ortadi: huquqiy madaniyatning pastligi; xizmat etikasiga amal qilinmasligi; rahbarning salbiy namunasi; jazoning muqarrarligiga ishonchning pastligi; iqtisodiy bosim va moliyaviy qiyinchiliklar; tashkilotda shaffoflikning yetarli emasligi; jamoada korrupsiyaga nisbatan murosali munosabatning mavjudligi.



Korrupsiyaga qarshi kurashishda psixologik profilaktikaning ahamiyati.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda huquqiy choralar bilan bir qatorda psixologik yondashuvlar ham muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa: halollik va adolat qadriyatlarini mustahkamlash; kasbiy etika bo'yicha muntazam treninglar tashkil etish; psixologik diagnostika orqali korrupsiya xavfini baholash; stressni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish; shaxsning axloqiy liderlik sifatlarini shakllantirish; ochiqlik va hisobdorlik muhitini kuchaytirish korrupsiya xavfini sezilarli darajada kamaytirishi mumkin.

Shaxsning korrupsiyaga moyilligi uning axloqiy qadriyatlari, emotsional intellekti, mas'uliyat hissi, motivatsiyasi, ijtimoiy muhitga munosabati va qaror qabul qilish xususiyatlari bilan uzviy bog'liq. Korrupsiyaga qarshi samarali kurashish uchun huquqiy mexanizmlar bilan bir qatorda psixologik profilaktika, ma'naviy tarbiya va halollik madaniyatini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshirish zarur. Bu yondashuv davlat xizmati va boshqa sohalarda korrupsiya xavfini kamaytirish hamda jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladi.